

“G’oyamiz - himoyamiz”

“O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganligining 27 yilligi hamda Vatan himoyachilari kunini nishonlashga tayyorgarlik ko‘rish va o‘tkazish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan, joriy yilning 13 dekabr sanasidagi F-5413 Farmoyishida belgilab berilgan vazifalarning ijrosini sifatli ta‘minlash, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganligining 27 yilligi hamda Vatan himoyachilari kunini munosib kutib olish va uni umumxalq bayrami sifatida keng nishonlash, harbiy tayyorgarlik o‘quv bo‘linmasida tahsil olayotgan yoshlarda vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirish maqsadida, harbiy tayyorgarlik bo‘yicha tahsil olayotgan talabalar bilan **“Vatan muqaddas, uni himoya qilish sharafli burchdir!”** degan umumiy g‘oya ostida turli xil tadbirlar tashkil etilmoqda va o‘tkazilmoqda.

Harbiy tayyorgarlik bo‘yicha tahsil olayotgan talabalar bilan Mudofaa Vazirligi tasarrufidagi 22418 harbiy qismga ekskursiya uyushtirildi va u yerda muhandislik texnikalari, qo‘shinlar sharoitida ishlatiladigan zamonaviy muhandislik asbob-anjomlari, ularning vazifasi, tuzilishi va ishlash tamoyili, bundan tashqari kundalik faoliyatda hamda o‘quv jangovar vazifalarni bajarishda xavfsizlik texnikasiga amal qilish, jabrlanganlarga birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish tartibi bo‘yicha mashg‘ulotlar tashkil etildi va o‘tkazildi. Shuningdek, harbiy qismda mavjud o‘qotar qurollar va ularning taktik-texnik tavsiflari, ishlatish tartibi bo‘yicha talabalarga yetarli ma‘lumotlar berildi, mashg‘ulot yakunida harbiy qism mansabdor shaxslari bilan talabalar o‘rtasida harbiy xizmatni o‘tash tartibi bo‘yicha suhbat tashkil etildi.



Harbiy qism hududida talabalar bilan muhandislik tayyorgarligi fanidan o‘quv mashg‘ulotlari olib borish uchun mas‘ul shaxslar tomonidan tayyorlangan o‘quv joylari.



Talabalarga harbiy mutaxassislarining mina qidiruv ishlarida foydalaniladigan maxsus kiyimini kiyish tartibi to‘g‘risida ma‘lumotlar berilmoqda.



Talabalarga o‘qotar qurollarning taktik-texnik tavsifi, ulardan foydalanish hamda noto‘liq qismlarga ajratish tartibi to‘g‘risida ma‘lumotlar berilmoqda.



O‘quv - jangovar, jangovar topshiriqlarni bajarish chog‘ida jabrlanganlarga tibbiy yordam ko‘rsatish tartibi to‘g‘risida ma‘lumotlar berilmoqda.

Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muxandislari instituti harbiy kafedrasida boshlig‘i podpolkovnik R. Minlishev axboroti

Institut Matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov